
Qo'shtepada "Tashabbusli byudjet" samarasi: Muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda

Qo'shtepa tumanida "Tashabbusli byudjet" loyihasida o'z tashabbuslari bilan faol qatnashgan mahallalardagi yo'l, ichimlik suvi, elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

Xususan, tumandagi "O'qchi" va "Yangiariq" mahalla fuqarolar yig'inlarida "Tashabbusli byudjet" loyihasining joriy yilgi ikkinchi bosqichida hududlardagi ta'mirga muhtoj bo'lgan ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq tashabbuslari g'olib deb topilgan edi.

Ayni kunlarda, tashabbus natijasida "O'qchi" mahallasidagi Yangi Farg'ona ko'chasining 3000 metrdan ortiq qismida, shuningdek "Yangiariq" mahallasidagi Navnihol, Yangi bo'ston hamda Yangi bog' ko'chalarining 3000 metr qismidagi astfaltlashtirish jarayonlari yakunlanib bormoqda.







2024-12-04 10:00:11